



# **YEVROSIYO PEDIATRIYA AXBOROTNOMASI** **ЕВРАЗИЙСКИЙ ВЕСТНИК ПЕДИАТРИИ**

TIBBIY ILMIY-INNOVATSION JURNAL  
МЕДИЦИНСКИЙ НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ



ISSN 2181-1954  
ESSN 2181-1962

3(18)  
2023

ДАМИНОВ Б. Т. (Ташкент) ИВАНОВ Д. О. (Санкт-Петербург) **Члены редакционной коллегии:**  
 АБЗАЛОВА Ш. Р. (Ташкент) АИТОВ К. А. (Иркутск, Россия)  
 АЛЕКСАНДРОВИЧ Ю. С. (Санкт-Петербург)  
 АКИЛОВ Х. А. (Ташкент) АЛИЕВ М. М. (Ташкент)  
 АМОНОВ Ш. Э. (Ташкент) АРИПОВ А. Н. (Ташкент)  
 АШУРОВА Д. Т. (Ташкент) БУЗРУКОВ Б. Т. (Ташкент) ВАЛИЕВ А. Р. (Ташкент)  
 ГУЛЯМОВ С. С. (Ташкент)  
 ДАМИНОВА Ш. Б. (Ташкент)  
 ДЕХКОНОВ К. А. (Ташкент)  
 ДУДАРЕВ М. В. (Россия)  
 Д. К. МУМИНОВ (Ташкент)  
 ЗАСЛАВСКИЙ Д. В. (Россия)  
 ИСКАНДАРОВА А. И. (Ташкент)  
 ИСКАНДАРОВА Ш. Т. (Ташкент) КАРИЕВ Г. М. (Ташкент)  
 МАДЖИДОВА Ё. Н. (Ташкент) МУМИНОВ Ш. К. (Ташкент)  
 ОХЛОПКОВ В. А. (Россия) ПУЗЫРЕВ В. Г. (Санкт-Петербург)  
 РАХМАНКУЛОВА З. Ж. (Ташкент)  
 РАХМАТУЛЛАЕВ А. А. (Ташкент)  
 РУЗИЕВ Ш. И. (Ташкент) ФУЁНГ ЖИАО (Китай)  
 СОБИРОВ М. А. (Ташкент)  
 СОДИКОВА Г. К. (Ташкент)  
 СОХАЧ А. Я. (Ставрополь, Россия) ТАДЖИЕВ Б. М. (Ташкент)  
 ТАШМУХАМЕДОВА Ф. К. (Ташкент) ТАДЖИЕВ М. М. (Ташкент)  
 ТИМЧЕНКО В. Н. (Санкт-Петербург)  
 ХАИТОВ К. Н. (Ташкент)  
 ХАЙБУЛЛИНА З. Р. (Ташкент) ХАСАНОВ С. А. (Ташкент)  
 ШАМАНСУРОВА Э. А. (Ташкент)  
 ШАМСИЕВ Ф. М. (Ташкент)  
 ШАРИПОВ А. М. (Ташкент) ШКЛЯЕВ А. Е. (Россия)  
 ЮСУПАЛИЕВА Г. А. (Ташкент)  
 ЮЛДАШЕВ И. Р. (Ташкент)  
 ЭРГАШЕВ Н. Ш. (Ташкент)

**Публикация рекламы на коммерческой основе. Ответственность за правильность рекламного текста несёт рекламодатель. Рекламодатели предупреждены редакцией об ответственности за рекламу не зарегистрированных и не разрешенных к применению Министерством здравоохранения РУз лекарственных средств и предметов медицинского назначения. Рукописи, фотографии, рисунки не рецензируются и не возвращаются авторам. Авторы несут ответственность за достоверность и разрешение на публикацию излагаемых фактов, точность цифровых данных, правильность названий препаратов, терминов, литературных источников, имен и фамилий.**

Адрес

**ЕВРОСИЁ ПЕДИАТРИЯ АХБОРОТНОМАСИ  
 ЕВРАЗИЙСКИЙ ВЕСТНИК ПЕДИАТРИИ**

Тиббий илмий-инновацион журнал  
 Медицинский научно-инновационный журнал

**Учредители:**  
 Ташкентский педиатрический медицинский институт  
 Санкт-Петербургский государственный педиатрический медицинский университет

Зарегистрирован агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан 08.05. 2019 г.

Свидетельство №1023  
 Журнал с 01.09. 2019 года включен в список иностранных журналов ВАК Республики Узбекистан. Протокол № 268/7 от 30.08. 2019 года.

Заместители главного редактора:  
*Гулямов С. С., Орел В. И.*

Ответственные секретари:  
*Л. А. Титова, У. У. Абдуллаева* Заведующий редакцией: *Дехконов К. А.*

**РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ**

АЛИМОВ А. В. (Ташкент) АСАДОВ Д. А. (Ташкент)  
 АТАНИЯЗОВА А. А. (Нукус)  
 АХМЕДОВА Д. И. (Ташкент)  
 БОРОНБАЕВА Р. З. (Нур-Султан, Казахстан)  
 ВАСИЛЕНКО В. С. (Санкт-Петербург, Россия)  
 ДАМИНОВ Т. О. (Ташкент)  
 ДЕВИЛ Д. (Рим, Италия)  
 ДЖУМАШАЕВА К. А. (Кыргизистан)  
 ИНОЯТОВА Ф. И. (Ташкент)  
 НАБИЕВ Э. Н. (Таджикистан)  
 ОРЕЛ В. И. (Санкт-Петербург, Россия)  
 ПЕВЕЛЕЦ К. В. (Санкт-Петербург, Россия)  
 РИКАРДО С. (Вашингтон, США)  
 КРАСИВИНА Д. А. (Санкт-Петербург, Россия)  
 СТАРЦЕВ А. И. (Беларусь)  
 ТУЙЧИЕВ Л. Н. (Ташкент)  
 ЧОНГ ПЕНГ ЧУНГ (Сеул, Южная Корея)  
 ШАДМАНОВ А. К. (Ташкент)  
 ШАМСИЕВ А. М. (Самарканд)  
 ЭНВЕР ХАСАНОГЛУ (Анкара, Турция) ЮЛДАШЕВА Н. Ю. (Великобритания)  
 ЯКОВЛЕВ А. В. (Санкт-Петербург, Россия)

редакции:  
 100140

Республика Узбекистан г. Ташкент ул. Богишамол, 223 тел:  
 +99871 - 260-28-57; факс: +998971 - 262 - 33-14; www:  
 tashpmi.uz/ru/science/journal/pediatry

3(18) 2023

Toxtayeva D.M

## O'zbekistonda bolalar va o'smirlar orasida qandli diabet kasalligining ijtimoiy-demografik xususiyatlari

Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti

### Rezyume

**Maqolada qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga hamshiralik yordamini tashkil etishning dolzarb muammolari tavsifi berilgan, qandli diabetning epidemiologiyasi haqida qisqacha ma'lumot berilgan, ambulatoriya-poliklinika darajasida olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyati qayd etilgan. zamonaviy sharoitlar, patronaj xizmatining harakatsizlar uchun hal qiluvchi roli, qandli diabet bilan kasallangan bemorlar bilan ishlashda hamshiralar faoliyati, kasallik asoratlari ularni oldini olishda xamshiralarni maqsad va vazifalari ta'kidlangan.**

**Kalit so'zlar:** qandli diabet, asoratlar, poliklinika, oilaviy poliklinika, oilaviy hamshira.

**Tadqiqot maqsadi.** Ambulator-poliklinika sharoitida bolalar va o'smirlar orasida qandli diabetni asoratlanishini oldini olishda oilaviy hamshiralarning vazifalarini aniqlash.

**Material va uslublar.** Ilmiy tadqiqotimiz Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek, Yashnaobod tumanlarida istiqomat qiluvchi QD 1-tur bilan kasallangan bolalar va o'smirlar orasida va Toshkent shaxri Mirzo Ulug'bek va Yashnaobod tumanlarida faoliyat olib boruvchi oila xamshiralari orasida o'tkazildi. Anketa so'rovnomasi o'tkazish, obyektiv va subyektiv ko'rikdan o'tkazish yo'li orqali bolalar va o'smirlarni sog'lom ovqatlanishi, kun tartibiga rioya qilishi va jismoniy xarakatlanishini aniqladik, Ilmiy tadqiqot uchun RIAEM statistika bo'limidan olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

**Dolzarbligi.** Qandli diabet (QD) - surunkali giperglikemiya bilan tavsiflangan kasallik bo'lib, u insulinning etarli darajada ishlab chiqarilmasligi natijasida metabolizmning barcha turlari,

birinchi navbatda uglevod almashinuvi, qon tomirlarining shikastlanishi (angiopatiya), asab tizimining (neyropatiya) va boshqa organlar va tizimlar buzilishiga olib keladi. XX asr oxiriga kelib, dunyoda diabet bilan kasallanganlar soni 120 millionga etgan bo'lib, JSST prognozlariga ko'ra, bu ko'rsatkich XXI asrda (uning boshida) 160 mln.ga etadi [7].

Taxminan QDni 1 turi barcha QD bilan kasallanganlarni 10% ni tashkil etadi. Bolalar va o'smirlarda 1-toifa diabetning milliy va mintaqaviy registrarlari dunyoning turli mamlakatlarida aholi soniga va geografik kengligiga qarab (yiliga 100 ming bolaga 7 dan 40 tagacha) kasallanish va tarqalishini va kasallikni o'zgaruvchanligini aniqladi. So'nggi yigirma yil ichida bolalar o'rtasida 1-toifa diabet bilan kasallanish doimiy ravishda o'sib bormoqda. QD bilan aniqlangan holatlarning yillik o'sishi 3%ga tengdir [6]. 1-tur Qandli diabet- bolalar va o'smirlar orasida eng ko'p tarqalgan endokrin kasallik xisoblanadi. Ushbu

kasallik bilan og'rish va uning tarqalishi dunyoning turli mamlakatlarida bir-biridan sezilarli farq qiladi. Diamond Project nomi bilan tanilgan ko'p millatli loyixa bo'yicha qandli diabet bilan bog'liq kasallanish, xavf omillari va o'lim haqida standartlashtirilgan xalqaro axborotlar yig'ilgan bo'lib, bu loyixada dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etgan. Tadqiqot natijasiga muvofiq, qandli diabet bilan kasallanish:

-eng katta ko'rsatkichlar (yiliga 100 minga 20dan ortiq) Skandinaviya(finlandiya, Shvetsiya, Norvegiya) va Sardiniya (Italiya) mamlakatlarida aniqlangan.

-O'rta ko'rsatkich (yiliga 100 ming axoliga 7-9 ta) bu AQSH, Yangi Zelandiya, Niderlandiya, Ispaniyada aniqlangan.

-Past ko'rsatkich (yiliga 100 ming axoliga 7 dan kam) bu Po'lisha, Italiya (Sardiniyadan tashqari), Isroil kabi mamlakatlarida kuzatilgan.

Kasallanish xavfini eng past ko'rsatkichlari (yiliga 100 ming axoliga 3tadan kam), Chili, Meksika, Xitoyda (Atlas IDF 2000-2009) kuzatilgan. 1-Tur QD bilan kasallanish darajasi ma'lum bir irqiy guruhga oidlik, mamlakatning geografik xolati, iqlim sharoitlari va atrof-muxit omillariga, xususan ovqatlanish turiga qarab sezilarli farq qiladi [1]. Oxirgi 16 yil ichida O'zbekiston bo'yicha erta tashxislash, insulin ta'minotining yaxshilanganligi va uning dozalarini optimallashtirilganligi, bemorni o'z-o'zini nazorat qilish usuliga o'qitish, shuningdek joylarda endokrinolog shifokorning qayta o'qitilayotganligi va insulin optimal dozalarni qo'llash, orqali

insulinterapiyasinin jadallashtilgan tartiblarini amaliyotga faol joriy qilinganligi tufayli bolalarda o'lim xolatlari 99,9% foizga, o'smirlar orasida 100% ga progressive ravishda kamaygani ta'kidlanmoqda [5]. **Bu kasallik pediatriyada** eng keng tarqalgan endokrin va metabolik kasalliklardan biri bo'lib, bemorlarning to'rtidan bir qismi to'rt yoshgacha bo'lganlarni tashkil etsa, kasallikning barcha holatlarining  $\frac{3}{4}$  qismi esa <18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarda aniqlanadi [8]. So'nggi yigirma yil ichida dunyoda o'tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar bolalar va o'smirlarda 1-toifa qandli diabet (QD 1) bilan kasallanishning ko'payishini ko'rsatmoqda. Dunyoda QD 1-turga chalingan bolalar soni 2000-yilda 395 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 586 ming nafarga oshgan. [2,9]. Bolalar o'rtasida QD1 turini tarqalish va kasallanishning ortib borishi sog'liqni saqlashning birinchi ustuvor yo'nalishlari qatoridadir. [3,4,10]. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2021-yil holatiga ko'ra 34558,9 ming kishini, shundan Toshkent shahri aholisi 2669,4 ming kishini, Toshkent viloyati aholisi esa - 2975,8 ming kishini tashkil etadi. Aholining umumiy tarkibida erkaklar ulushi 50,2% ni, ayollar ulushi 49,8% ni tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasida doimiy aholining asosiy yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni 30,5% ni, 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lganlarning 58,9% ni, 65 yoshdan

oshganlarning 10,6 % ni tashkil etadi. Toshkent shahrida taqsimlanishi esa 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlarni 26,2% ni, 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lganlarning 57,5%ni, 65 yoshdan oshganlarning 16,3 % ni tashkil etadi. Tug'ish yoshidagi ayollar, bolalar va o'smirlarni prenatal skrining va klinik ko'rikdan o'tkazish tizimining keng joriy etilishi bolalar va o'smirlar orasida turli kasalliklarni,shu jumladan birlamchi noinfekcion kasalliklarga erta tashxis qo'yib,kasallik asoratlarini oldini olishga yordam berdi. "2019-2022 yillarda noinfekcion kasalliklarni oldini olish,sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va axoli orasida jismoniy faollik darajasini oshirish konsepsiyasi" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrda PQ-4063-son qarori)ga muvofiq barcha o'lim ko'rsatkichlarni 78 %ni har yili yuqumli bo'lmagan kasalliklar tashkil etadi. O'zbekistonda bolalar va o'smirlarda 1 turdagi qandli diabetni epidemiologik malumotlari 2000 yildan e'tiboran o'tkazib kelinadigan milliy registr asosida taxlil qilinadi.

**Material va uslublar.** Ilmiy tadqiqotimiz Toshkent shahridagi Mirzo Ulug'bek,Yashnaobod tumanlarida istiqomat qiluvchi QD 1-tur bilan kasallangan bolalar va o'smirlar orasida va Toshkent shaxri Mirzo Ulug'bek va Yashnaobod tumanlarida faoliyat olib boruvchi oila xamshiralari orasida o'tkazildi. Anketa so'rovnoma o'tkazish, obyektiv va subyektiv ko'rikdan o'tkazish yo'li orqali orqali bolalar va o'smirlarni sog'lom ovqatlanishi, kun tartibiga rioya

qilishi va jismoniy xarakatlanishini aniqladik, Ilmiy tadqiqot uchun RIAEM statistika bo'limidan olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

**Natijalar va muxokama** O'zbekiston Respublikasi va Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi QD 1-turi bilan kasallangan bolalar va o'smirlarni epidemiologik xolatini RIIAEMdan olingan statistic ma'lumotlar asosida taxlil qildik. O'zbekiston Respublikasi (2018-2022 yillar) da QD 1-tur bilan kasallangan bolalarni ko'rsatkichi 100 000 axoli soniga 2018 yilda 4,2 tani, 2022 yilda bolalar orasida kasallanish ko'rsatkichi 5,7 taga etgan. QQRda esa 2018 yilda 4,9 ta kasallangan bolalar ro'yxatga olingan bo'lsa 2022 yilga kelib ,bu ko'rsatkich 7,8 taga etdi yani kasallanish darajasi 2,9 taga oshdi.Andijonda 2018 yilda 100 000 axoli soniga 2,4 ta kasallanish xolati kuzatilgan bo'lsa, 2022 yilda bu ko'rsatkich 5,0 taga etgan yani kasallanish ko'rsatkichi 2,6 taga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Buxoroda esa 2018 yilda bolalar orasida kasallanish 3,7 taga 2022 yulda 4,1 taga, Jizzaxda 2018 yilda 2,7 taga 2022 yilda 3,9 taga, Qashqadaryoda 2018 yilda 4,3taga 2022 yilda esa 3,5 taga, Navoiyda 2018 yilda 3,3taga 2022 yilda esa 3,2 taga, Namanganda 2018 yilda 3,8 taga 2022 yilda 3,2 taga, Samarqandda 2018 yilda 2,6 ta 2022 yilda 6,4taga, Surxondaryoda 2018 yilda 2,9 ta 2022 yilda esa 4,3 taga etgan bo'lsa, Sirdaryoda bu ko'rsatkich 2018 yilda 10,4 tani 2022 yilga kelib 5,2 taga kamayganini yani 2 barobarga kamayganini ko'rishimiz

mumkin. Toshkent viloyatida esa kasallanish ko'rsatkichi 100 000 axoli soniga 2018 yilda 6,5 tani tashkil qilgan bo'lsa 2022 yilda bu ko'rsatkich 9,7 taga etdi, kasallanish ko'rsatkichi 3,2 taga oshganini ko'rishimiz mumkin. Fargonada esa 2018 yilda kasallanish ko'rsatkichi 2,5 tani tashkil qilgan bo'lsa 2022 yilda kasallanish ko'rsatkichi 4,3 taga etdi, Xorazmda 2018 yilda 4,5ta kasallanish ko'rsatkichi qayd etilgan bo'lsa 2022 yilda bu ko'rsatkich 6,3 taga

etgan, Toshkent shaxrida 2018 yilda 100 000 axoli soniga 10,5 ta kasallanish xolati kuzatilgan bo'lsa 2022 yilga bu ko'rsatkich 12,2 taga etdi. o'smirlar orasida esa 9,0 tani tashkil etdi, yani kasallanish 3,2 taga oshdi. Eng yuqori kasallanish ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston res.da, Andijon, Samarqand, Toshkent, Xorazm va Farg'ona viloyatlari va Toshkent shaxrida kuzatishimiz mumkin. (1., jadval)

**O'zbekiston Res.si, shaxar va viloyatlarda QD bilan kasallangan bolalarni kasallanish ko'rsatkichi (100 000 axoli soniga)** **1., Jadval**

Shaxar va viloyatlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	4,2	4,6	5,2	5,4	<b>5,7</b>
QQR	4,9	6,7	7,7	7,9	7,8
Andijon	2,4	3,0	3,1	2,8	5,0
Buxoro	3,7	5,7	7,9	7,9	4,1
Jizzax	2,7	2,9	3,9	5,3	3,9
Qashqadaryo	4,3	2,8	3,1	3,3	3,5
Navoiy	3,3	3,2	6,9	4,7	3,2
Namangan	3,8	2,8	3,3	3,5	3,2
Samarqand	2,6	2,9	3,2	3,6	6,4
Surxondaryo	2,9	3,4	4,1	4,4	4,3
Sirdaryo	10,4	7,3	8,7	4,6	5,2
Toshkent vil.	6,5	8,4	7,7	7,5	9,7
Farg'ona	2,5	3,6	4,8	4,6	4,3
Xorazm	4,5	7,2	5,6	6,7	6,3
Toshkent sh.	10,5	9,3	10,9	14,1	12,2

O'zbekiston Res.si va viloyatlarda QD bilan kasallangan o'smirlarni kasallanish ko'rsatkichi (100 000 axoli soniga)ni kuzatsak eng yuqori ko'rsatkich Jizzax viloyatida bo'lib 2018 yilda kasallanish ko'rsatkichi 4,4 ta ga

etgan bo'lsa, 2022 yilga kelib kasallanish ko'rsatkichi 11,1 taga etgan, yani kasallanish 6,7 taga o'sgan. Keying o'rinda Fargona viloyatida 2018 yilda 5,7ta, 2022 yilda 13,2 taga kasallanish oshganini va Xorazmda 2018 yilda 2,3 tadan 2022 yilda

kasallanish ko'rsatkichi 9,2 ta ga ya'ni  
kasallanish ko'rsatkichi 6,9 taga

o'sganini ko'rishimiz mumkin.(2.,Jadval  
)


**O'zbekiston Res.si va viloyatlarda QD bilan kasallangan o'smirlarni kasallanish ko'rsatkichi (100 000 axoli soniga)**

**2.,Jadval**

Shaxar va viloyatlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	11,0	7,8	7,2	9,9	9,0
QQR	20,8	7,5	2,2	12,6	12,4
Andijon	9,8	3,7	5,9	6,4	8,7
Buxoro	8,2	22,5	15,3	12,6	5,5
Jizzax	4,4	11,7	1,5	4,3	11,1
Qashqadaryo	6,3	10,7	5,1	7,6	9,8
Navoiy	9,4	2,3	4,5	6,5	21,0
Namangan	17,0	8,8	5,6	4,0	4,4
Samarqand	5,5	3,3	6,5	6,7	7,0
Surxondaryo	8,8	7,1	7,3	12,7	8,5
Sirdaryo	17,3	12,2	12,4	7,1	15,8
Toshkent vil.	35,4	6,2	6,9	13,7	7,3
Farg'ona	5,7	7,9	12,7	15,1	13,2
Xorazm	2,3	2,2	9,0	14,0	9,2
Toshkent sh.	7,1	9,6	6,4	11,6	4,8

QD kasalligini bolalar va o'smirlar o'rtasida kasallanish ko'rsatkichiga nazar tashlasak O'zbekiston Respublikasida 2019-2022 yillarda qandli diabet bilan kasallangan bolalar va o'smirlar sonini yildan yilga o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin. 2019 yilda O'zbekiston Respublikasida QD bilan kasallangan bolalar soni 3263

ta,2020 yilda 3284 ta, 2021 yilda 3701 ta va 2022 yilda 4075 ta bolalar va o'smirlar QD kasalligi bilan kasallanganini ko'rishimiz mumkin.Bu ko'rsatkichlardan QD 1 turini bolalar va o'smirlar orasida yildan yilga o'sib borayotganiga yana bir bora ko'rishimiz mumkin. (1.,rasm).



**1.,rasm**

**O'zbekiston Respublikasida Qandli diabet bilan kasallangan bolalar va o'smirlarni kasallanish darajasi bo' yicha taqsimlanishi. (2019-2022yillar,RIIAEM statistika bo'limi)**

Toshkent shaxrida esa QD bilan kasallangan bolalarni 2018-2022 yillardagi statistika ma'lumotlariga nazar tashlasak qandli diabet bilan kasallangan bolalar va o'smirlar sonini yildan yilga o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin.Yani 2018 yil jami 375 nafar bola QD bilan kasallanish ro'yxatida turgan bo'lsa, shu yili 72 ta yangi QD bilan kasallanish xolati, 2019 yilda 417 ta bolalar va o'smirlar ro'yxatga olingan bo'lsa yangi kasallanish xolati 70 tani tashkil etadi. 2020 yilda esa QD bilan kasallanish xolati 450 taga

yetgan bo'lsa shu yili 82 ta yangi kasallanish xolati, 2021 yilda 533 nafar bola va o'smir QD bilan ro'yxatga olinganini va shu yili 118 nafar bolada yangi kasallanish xolati aniqlanganini ko'rishimiz mumkin. 2022 yilda esa jami 616 nafar bolalar va o'smirlar QD bilan ro'yxatda turgan bo'lsa, 76 nafar, bolalarda esa yangi kasallanish xolati qayd etilganini ko'rishimiz mumkin.(2.,rasm)





2.,rasm

**Toshkent shaxrida QD bilan kasallangan bolalar va o’smirlar 2018-2022 yillar (100.000 axoliga)**

Toshkent shaxrida istiqomat qiluvchi QD bilan kasallangan bolalarni Yoshi bo’ycha taqsimlash strukturasi ko’zdan kechirganimizda 1 yoshdan 5 yoshgacha, 5 yoshdan 10 yoshgacha, 10 yoshdan 15 yoshgacha bo’lgan bolalar va 16 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan o’smirlarga taqsimlab chiqdik. 1 yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan bolalar orasida kasallanish xolati 2018 yil 24 ta (6,4%)ni, 2019 yilda 20 ta (4,8%)ni, 2020 yilda 24 ta (5,3%) ni, 2021 yil 29 ta (4,8%)ni va 2022 yilda 26 ta (4,2%) 1yoshdan 5 yoshgacha bo’lgan bolalar va o’smirlarni kasallanganini ko’rishimiz mumkin. 5 yoshdan 10 yoshgacha bo’lgan bolalar orasida esa 2018 yilda 108 ta bola (28,8%), 2019 yilda 108 ta bola (25,9%), 2020 yilda 114 ta (25,3%), 2021 yilda 149 ta (24,6%), 2022 yilda 136 ta (22%) ta 5 yoshdan 10 yoshgacha bo’lgan bolalarni QD bilan kasallanganini ko’rishimiz mumkin. 10 yoshdan 15 yoshgacha

bo’lgan bolalar orasidagi kasallanishni kuzatsak 2018 yilda 163 ta(43,5%), 2019 yilda 191 ta (45,8%),2020 yilda 219 t(48,7%),2021 yilda 312 ta (51,5%), 2022 yilda esa 303 ta (49.1%) bolalarni Q.D bilan kasallanganini ko’rishimiz mumkin. Jadvaldan 16 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan o’smirlarni kuzatsak 2018 yilda 80 ta(21,3%), 2019 yilda 98 ta (23,5%), 2020 yilda 93 ta (20,7%). 2021 yilda 116 ta (19,1%), va 2022 yilda 151 ta (24,5%) o’smirlar QD bilan kasallanganini ko’rishimiz mumkin. Bolalar va o’smirlarni yoshi bo’ycha yillarga taqsimlab o’rganganimizda eng yuqori kasallanish ko’rsatkichi 10-15 yosh oralig’dagi bolalarda, undan keying o’rinda 5-10 yoshdagi bolalar, va 16-18 yoshdagi o’ smirlarda kuzatishimiz mumkin. Eng kasallanishni past ko’rsatkichini esa 1- 5 yoshdagi bolalar orasida kuzatishimiz mumkin.(3.,jadval)

**QD bolalarni yoshi bo'yicha taqsimlanish strykturasi (100.000 axoliga)**  
**3.,jadval**

Yosh	2018	2019	2020	2021	2022
1-5 yoshgacha bolalar	24 (6,4%)	20 (4,8%)	24 (5,3%)	29 (4,8%)	26 (4,2%)
5-10 yoshgacha bolalar	108 (28,%)	108 (25,9%)	114 (25,3%)	149 (24,6%)	136 (22%)
10-15 yoshgacha bolalar	163 (43,5%)	191 (45,8%)	219 (48,7%)	312 (51,5%)	303 (49,1%)
16-18 yoshgacha o'smirlar	80 (21,3%)	98 (23,5)	93 (20,7%)	116 (19,1%)	151 (24,5%)

2018-2022 yillarda 1- tur QD bilan kasallangan bolalar va o'smirlar orasida kasallik asoratlarini rivojlanish monitoringini ko'zdan kechirganimizda jami asoratlar 2018 yil 298 ta (81,3%), 2019 yil 340 ta (81,6%), 2020 yil 253 ta (55,8%), 2021 yil 232 ta (37,8%), va

2022 yil 212 ta (34,3%) xolatni kuzatishimiz mumkin. Bolalar va o'smirlar orasida kasallik asoratlaridan diabetik polineyropatiya bilan kasallanish yuqori darajada ekanligini ko'rishimiz mumkin. eng past ko'rsatkich esa jinsiy rivojlanishda orqada qolishdir. (3.1.4., Jadval).

**QD bilan kasallangan bolalar va o'smirlarda kasallik asoratlarini rivojlanish monitoring 2018-2019 yillar (100 000 axoliga)**

**4.,jadval**

Kasallik asoratlari	2018	2019	2020	2021	2022
Diabetik nefropatiya	17ta (4,5%)	19ta (4,6%)	12ta (2,6%)	14ta (2,3%)	16ta (2,59%)
Diabetik retinopatiya	13ta (2,9%)	13ta (3,1%)	15ta (3,3%)	7ta (1,1%)	10ta (1,62%)
Diabetik polineyripiya	131ta (34,9%)	123ta (29,5%)	105ta (23,3%)	95ta (15,6%)	82ta (13,2%)

Diabetik encefalopatiya	23ta (6,1%)	29ta (7,0%)	25ta (5,5%)	19ta (3,1%)	23ta (3,7%)
Diabetic kardiopatiya	36ta (9,6%)	44ta (10,6%)	33ta (7,3%)	26ta (4,2%)	24ta (3,8%)
Diabetic gepotapotiya	26ta (6,9%)	30ta (7,2%)	18ta (4%)	11ta (1,8%)	8ta (1,2%)
Diabetic xayropatiya	5ta (1,3%)	8ta (1,9%)	5ta (1,1%)	3ta (0,4%)	3ta (0,86%)
Fizik rivojlanishdan orqada qolish	19ta (5,0%)	33ta (7,9%)	26ta (5,7%)	25ta (4,1%)	19ta (3,0%)
Jinsiy rivojlanishdan orqada qolish	2 ta (0.5%)	3ta (0,7%)	3ta (0,6%)	1ta (0,1%)	-
Bir qancha asorati bor bo 'lganlar	36ta (9,6%)	38ta (9,1%)	11ta (2,4%)	31ta (5,1%)	27ta (4,3%)
Jami	298ta (81,3%)	340ta (81,6%)	253ta (55,8%)	232ta (37,8%)	212ta(34,4%)

Toshkent shaxri misolida kasallik asoratlarini kuzatsak bolalar va o 'smirlarda kasallik asoratidan 2018-2022 yillar oralig'ida diabetic polineyriyatiya 536 ta xolatda

kuzatilgan bo'lib, keyingi o 'rinlarda diabetic kardiopatiya 163 ta, diabetic encefalopatiya 119 ta, bir qancha asorati bor bo'lgan bolalar 143ta bolada kuzatishimiz mumkin.( 3.,rasm).



**3.,rasm**

**Toshkent shaxrida QD bilan kasallangan bolalar va o'smirlarda kasallik asoratini rivojlanishi 2018-2022 yillar (100.000 axoli soniga)**

O'zbekiston Respublikasi va xududlar kesimida bolalar o'rtasida QD bilan kasallanishni ilk aniqlanish ko'rsatkichlarini kuzatsak ilk bora eng ko'p kasallik kuzatilgan xudud Samarqand viloyati bo'lib 2018 yilda ilk kasallanish ko'rsatkichi 30 ta bo'lgan bo'lsa 2022 yilda bu ko'rsatkich 84 taga etdi, yani 2,4 marotabaga kasallanish

ko'paygan. Toshkent viloyati 2018 yilda 51ta 2022 yilda 82 ta ilk kasallanish xolatlari, Farg'onada 2018 yilda 26 ta 2022 yilda 50 ta yangi kasallanish xolati, Toshkent shaxrida 2018 yilda 65 ta 2022 yilda 94 ta yangi kasallanish xolatlarini kuzatishimiz mumkin. (5.,jadval)

**O'zbekiston Respublikasi va xududlar kesimida bolalar o'rtasida QD bilan kasallanishni ilk aniqlanish ko'rsatkichlari**

**5.,jadval**

Shaxar va viloyatlar	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	403	452	530	573	<b>616</b>
QQR	27	37	43	45	45
Andijon	21	28	30	28	51
Buxoro	19	30	42	43	23
Jizzax	11	12	17	24	18
Qashqadaryo	42	28	32	36	39
Navoiy	9	9	20	14	10
Namangan	30	23	28	31	30
Samarqand	30	35	39	45	84
Surxondaryo	23	28	35	39	40
Sirdaryo	25	18	22	12	14
Toshkent vil.	51	67	63	62	82
Farg'ona	26	38	53	52	50
Xorazm	24	39	31	38	36
Toshkent sh.	65	60	75	104	94

O'zbekiston Respublikasi va xududlar kesimida o'smirlar o'rtasida QD bilan kasallanishni ilk aniqlanish ko'rsatkichlariga nazar tashlasak eng

yuqori ko'rsatkich Qashqadaryo viloyatida kuzatilib 2018 yil 10 ta o'smirda ilk kasallanish aniqlangan bo'lsa 2022 yilda bu ko'rsatkich 16 taga etdi. Navoiy viloyatida 2018 yilda 4 ta o

‘smirda ilk kasallanish aniqlangan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 10 taga etdi. Fargona viloyatida esa 2018 yilda o‘smirlar orasida ilk kasallanish

ko‘rsatkichi 9 tani tashlik etgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 24 taga etgan (6.,jadval).

**O‘zbekiston Respublikasi va xududlar kesimida o‘smirlar o‘rtasida QD bilan kasallanishni ilk aniqlanish ko‘rsatkichlari**

**6.,jadval**

Shaxar va viloyatlar	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	167	121	112	158	<b>151</b>
QQR	19	7	2	12	12
Andijon	13	5	8	9	13
Buxoro	7	19	13	11	5
Jizzax	3	8	1	3	8
Qashqadaryo	10	17	8	12	16
Navoiy	4	1	2	3	10
Namangan	21	11	7	5	6
Samarqand	10	6	12	13	14
Surxondaryo	11	9	9	16	11
Sirdaryo	7	5	5	3	7
Toshkent vil.	44	8	9	18	10
Farg‘ona	9	13	21	26	24
Xorazm	2	2	8	13	9
Toshkent sh.	7	10	7	14	6

Olingan natijalarga xulosa qiladigan bo‘lsak, Toshkent shaxri va Toshkent viloyati va butun Respublika bo‘ylab bolalar va o‘smirlar o‘rtasida QD kasalligi bilan kasallanish ko‘rsatkichlari,uning asoratlari ko‘rsatkichlari oshgan. QD bilan kasallanish ayniqsa, 10-15 yoshdagi bolalar orasida yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga kasallik asoratiga nazar tashlasak bolalar va o‘smirlar orasida polineyropatiya kasalligi yuqori ko‘rsatkichdaligiga guvoh bo‘lamiza.Kasallik asorati

rivojlangan bolalar va o‘smirlarda xayot sifati sezilarli darajada pasayadi,bu esa o‘z navbatida nogironlik darajasini oshishiga olib kelishi mumkin.Oila xamshiralarini bemorlar bilan ko‘proq muloqot qilishi, ularga kasallik xavf omillarini tushuntirishi, bemorlarga to‘g‘ri ovqatlanishni, kun tartibiga rioya etishni targ‘ibot etishi, kasallik keltirib chiqaradigan asoratlarni oldini olishga yordam beradi. Rasmiy statistik ma'lumotlar taxlili oxirgi 5 yilda kasallikni birlamchi aniqlangan va "D" nazoratga oligan holatlari dinamikasi

ko'payish tendensiyaga ega ekanligi aniqlandi. 2022-yilda 2018-yilga nisbatan "D" nazoratdagi bolalar soni 21,8 barovarga oshgani kuzatilgan bo'lsa, QD qasalligi bilan birlamchi ro'yxatga olinganlar dinamikasi ham ko'tarilgan bo'lib, Kovid pandemiyasi davrida eng katta ko'rsatkichni, ya'ni 118 nafar bemor bolalar "D" ro'yxatga olgan.

**Xulosa.** Oxirgi 5 yillik dinamikada bolalar orasida Qandli diabet bilan kasallanish ko'rsatkichlari ko'payishi bilan birga kasallikni asorati ham parallel ravishda ortib borgan. Kasallikni asoratlarini uchrashi bo'yicha yillar kesimida taxlil qilganimizda deyarli 50% bolalarda diabetik polineuropatiya holati eng yuqori ko'rsatkichda ekanligi aniqlandi va bu bolalarda asab va ruhiyatida hamda qon tomirlarida o'zgarish ketayotganligini bildiradi. Bu holat, bolalarda kasallikni og'ir kechayotganligini bildirib, ularga uy sharoitidagi parvarishlash usullarini doimiy ravishda olib borish kerakligini ko'rsatadi. Keyingi o'rinlarda asoratlarning tarqalganligi bo'yicha bir nechta asoratlarni uchrashi, diabetik kardiopatiya, ensefalopatiya, gepatopatiya holatlari kuzatilib, xattoki bolalarni jismoniy rivojlanishi orqada qolishi ham yuqori darajada kuzatildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Alimov A.V., Bolalar endokrinologiyasi bo'yicha klinik protokollar., O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi, O'zbekiston endokrinologlari Milliy Assosiyasi, Respublika Ixtisoslashtirilgan Endokrinologiya Ilmiy-Amaliy Tibbiyot Markazi, Toshkent-2019 yil, 10-bet
2. Dedov I.I., Shestakova M.V., Piterkova V.A., Vikulova O.K., Jeleznyakova A.V., Isakov M.A., Laptev D.N., Andrianova E.A., Shiryaeva T.Yu. Rossiya Federatsiyasining Federal reestriga ko'ra bolalar va o'smirlardagi qandli diabet: 2013-2016 yillarda asosiy epidemiologik xususiyatlarning dinamikasi. Qandli diabet 2017; 20(6): 392-400 bet.
3. Dedov I.I., Shestakova M.V., Mayorova A.YU., Vikulova O.K., Galstyan G.R., [va boshqalar]. Qandli diabet bilan og'rigan bemorlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish algoritmlari. Qandli diabet. 2017; 20(15): 1-121 bet.
4. Misnikova I.V., Dreval A.V., Kovaleva YU.A., Gubyakina V.A., 2004-2013 yillarda Moskva viloyatida qandli diabetning epidemiologik holatining xususiyatlari // Klinik tibbiyot almanaxi. 2014 yil- 32son, 20-26-bet.
5. Rahimov G.N., F.F. To'raev F.F., Alimova N.U., Alieva A.V., Sodiqova A.S., Azimova SH.SH., Milliy va klinik tavsiyalar "bolalarda 1 tur qandli diabet, Toshkent-2022 va 13 bet.
6. Smirnov V.V., Nakula A.A., Bolalar va o'smirlarda 1-toifa qandli diabet: etiopatogenez, klinika, davolash // Davolovchi shifokor. – 2015-06-17.
7. Smoleva E.V., TERAPIYADA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KURSI 13-nashr, Rostov-na-Don "Feniks" 2012 yil, ISBN, "fSs5-222-iaT49-3 UDC 616 (075.32)BBK 53,5 ya 723, 345-356 bet.

8. Katsarou A., Gudbjörnsdottir S., Rawshani A. et al. Type 1 diabetes mellitus. Nat. Rev. – 2017 Dis. Primers. – 3: 17016.

9. IDF Diabetes Atlas, 8th ed. Brussels: International Diabetes Federation 2017, available at: <https://diabetesatlas.org>.

10. Shcherbacheva L.N., Kuraeva T.L., Shiryayeva YU.T., Rossiya Federatsiyasidagi bolalarda I turdagi qandli diabetning epidemiologik xususiyatlari // Qandli diabet - 2004. - No 3., 2-6 bet.